

## ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

**Aldashev Ilhomjon**

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Ahmadaliyeva Gulira'no**

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy texnika va axborot texnologiyalarining ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohalarida va kundalik hayotimizda tutgan o'rni haqida yoritilgan*

**Kalit so'zlar:** *Texnika, texnologiya, qulaylik, rivojlanish, internet, kompyuterlashtirish sayti, tizim, vosita, avtomatlashtirish.*

Dunyodagi hamma narsa abadiy harakat jarayonida, hamma narsa tabiat qonuniga bo'ysunib, oqib, o'zgarib turadi, ayni bir daryoga ikki marta tushib bo'lmaydi, biz ko'rib turgan har kungi Quyosh yangi Quyosh, biz o'zimiz ham har bir lahzada yangilanamiz... Yunon faylasufi Geraklit ushbu so'zlarni aytganda mutlaqo haq edi. Negaki, zamon, turmush tarzi hattoki insonlar ham kundan kunga rivojlanadi, yangilanadi. Mana necha yillar, necha asrlar oshib yangidan yangi ixtirolarga duch kelmoqdamiz. Tarixdan bilganimiz tosh davri, bronza davri, temir davri kabi davrlar osha bugun XXI asr – texnologiyalar asri deya nom oldi. Hayotimizga texnika va texnologiyalarning kirib kelishi ma'lumot axborot olishni tezlashtirishda, ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohalarida taraqqiyotga erishishda, kundalik hayotimizdagi ko'plab vazifalarni amalga oshirishda qulaylikka ega bo'lishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida erishilgan barcha muvaffaqiyatlarga texnologiyalar orqali erishildi. Dars jarayonida kompyuter, monitor, televizor va shunga o'xshash texnikalardan foydalanish o'quvchi va talabalarni tez va oson tushunishini ta'minlamoqda. Dars mavzusini rasmlar yoki videolar orqali tushuntirish nutq so'zlashdan ko'ra qiziqarliroq tuyiladi. Darhaqiqat, psixologiyada ham inson ongi so'z vositasidan ko'ra tasvir ifodasi orqali ko'proq esda saqlab qolishi ta'kidlangan. Bundan tashqari onlayn darslarning tashkil etilishi o'quvchi va talabalarning vaqtini tejash bilan birga sifatli bilimga ega bo'lishlariga ham xizmat qilmoqda.

Maktab, shahar va tumanlarda kutubxonalarning tashkil etilishi foydalanuvchilar uchun qulaylik tug'dirgan bo'lsa-da, ayrim kitoblarning topilmasligi ham kuzatiladi. Bunday hollarda elektron kutubxonalardan foydalanish imkoniyati bor ekanligi quvonarli holat, albatta. Ayni paytdagi eng yaxshi elektron kutubxona sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin: Ziyonet ta'lim kutubxonasi, ziyo istagan qalblar uchun internet kutubxonasi, talabalar uchun axborot izlash markazi, xalq ta'limi vazirligining axborot ta'lim portali, respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi, respublika bolalar kutubxonasi. Ushbu elektron kutubxonalardan faqatgina kitoblarni

emas, kun yangiliklari, axborot-ma'lumotlarni ham topish mumkin. Ayni paytda ko'plab yoshlar orasida ommalashgan IELTS, CEFR va shu turdagi chet tili sertifikatlarini qo'lga kiritishda tayyorgarlik, ro'yxatdan o'tish va sertifikatni qabul qilish jarayonlari bevosita ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq. Oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirish ham hozirda internet saytlari orqali amalga oshiriladi. Abituriyentlar Dtm.uz saytiga kirib onlayn ro'yxatdan o'tish, bir marta ro'yxatdan o'tgandan so'ng fikri o'zgarib qolgan holatda ro'yxatni tahrirlash imkoniga ega bo'ldilar. Avvalgidek, universitetga kirish uchun hujjat tayyorlash, necha soatlab navbat kutish kabi noqulayliklarga barham berildi. Hozirda abituriyentlar test topshirgandan so'ng bir sutka ichida o'z ballarini bilishi, qaysi universitetda nechanchi o'rinda turgani haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Eng muhim jihati shundaki, iqtidorli yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z mahoratlarini namoyon etish, xalq orasida tanilish va hattoki daromad qilish imkonini qo'lga kiritdilar. Misol uchun telegram kanallarida tashkil etilayotgan turli xil kitobxonlik tanlovlari, dasturlashga oid ko'rik-tanlovlar iqtidorli yoshlarning kashf etilishiga sabab bo'lmoqda. Ayrim yoshlar esa loyihalar yaratish orqali bilimli yoshlarni bir joyga jamlashga, muhtoj insonlarga yordam berishga erishmoqdalar. Barchamiz guvoh bo'layotganimizdek, bugungi kunda maktablarda "Kundaik.com", oliy ta'lim muassasalarida "Hemis" tizimidan foydalanilmoqda. Ushbu dasturlar o'qituvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham qat'iy nazoratni belgilaydi, hamda davomat, dars jadvali, baholash borasida avtomatik tarzda ish olib boradi. Albatta, bunday tizim ta'lim samaradorligini ham kafolatlaydi.

Tibbiyot sohasida ham kompyuterlashtirilgan zamonaviy texnologiyalar inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, hech qanday operatsiyalar, tekshiruv, tahlillarsiz inson tanasida qanday kasallik borligini ko'rsatib beruvchi apparatlar paydo bo'ldi. Dorixonalarda ham kerakli dorilarni topib berishda kompyuterlardan foydalanilmoqda, laboratoriyalarda tibbiy tahlil va turli xil tajribalar tez va oson amalga oshirilmoqda. Tibbiyotda erishilgan muvaffaqiyatlar eng katta yutuqdir. Negaki, buyuk ne'mat bo'lgan inson hayotini saqlab qolish, uning salomatligini tiklay olish har narsadan ustun A. Shopengauer aytganidek: "Baxtimizning o'ndan to'qqiz ulushi sog'ligimizga bog'liq. Sog'lik hayotning shunday ne'matidirki, chindan ham betob podshodan sog'lom gado ming karra baxtiyordir".

Yana aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalar orqali tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga asoslangan jarayonlar tezroq, samaraliroq va maqbulroq bo'lishiga, ish vaqti kamroq talab va katta foyda keltiradigan kamroq ishchi kuchi va katta ishlab chiqarishga erishildi. Ayniqsa, tadbirkorlik sohasini texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tadbirkor o'z biznes rejalarini kompyuter grafikasi orqali shakllantirishi, excel dasturi yordamida ish va ishchilar nazoratini, daromad hisob-kitobini, ish jarayonidagi o'sish va pasayishni osongina amalga oshirishi mumkin. Savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar ham ishlab chiqarayotgan yoki chet eldan olib kelayotgan

mahsulotini internet saytlarida reklama berish bilan o'z bizneslarini rivojlantirishga muvaffaq bo'ladilar.

Nafaqat ayrim sohalarda, balki kundalik hayotimizda ham texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Oddiygina taksi xizmatidan foydalanganimizda ham ularning kompyuterlashtirilgan tizim bilan ishlashlariga guvoh bo'lganmiz. Kun davomida turli vazifalarni avtomatlashtirish, eslatmalarni o'rnatish, samarali muloqot qilish, bir tugmani bosish orqali to'lovlarni amalga oshirish, eng oddiy narsalarni, masalan, oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishda ham texnologiyalarga tayanamiz. Hozirgi paytda hayotimizga "aqlli uylar" iborasi kirib kelgan. Aqlli uy – bu maxsus gadjet, telefonda ilova yoki ovoz bilan berilgan buyruqlarni bajaradigan elektronika va elektr jihozlari bilan to'ldirilgan uy. Zamonaviy avtomatlashtirilgan texnologiya kuchi yoritishni boshqarish, iqlim nazorati, xavfsizlik tizimi – videokuzatuv tizimlari, interkom va signalizatsiya tizimlarini o'rnatish va masofadan boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Modomiki, zamonaviy texnologiyalar hayotimizning muhim qismiga aylangan ekan, ulardan oqilona foydalanishimiz, texnologiyalar vositasida yanada rivojlanishimiz zarur. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga katta e'tibor qaratmoqda. Bunga misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoniga muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2022-yil yakuniga qadar aholi yashash maskanlarini keng polosali mobil aloqa tarmog'i bilan qamrab olish darajasini 98 foizga, xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'llari bo'ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrovini 60 foizga yetkazish; elektron davlat xizmatlari ko'rsatilishiga xususiy sektorni jalb qilish orqali foydalanuvchilar sonini 2 barobar oshirib, 4 millionga yetkazish; 2023-yil yakuniga qadar raqamli texnologiyalar sohasida masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash faoliyatini rivojlantirish orqali yiliga 6,5 ming nafardan ortiq yoshlarning axborot texnologiyalari yo'nalishida ta'lim olishini yo'lga qo'yish; davlat organlari, shu jumladan, mahalliy hokimlik organlarida hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda 214 ta axborot tizimi va dasturiy mahsulotlarni joriy etish belgilab qo'yildi.

Texnologiyalar hayotimizga mo'jiza kabi kirib keldi, ular tufayli uzog'imiz yaqin, og'irimiz yengil bo'ldi. Zamonaviy texnologiyalar har qanday sohada yuksak cho'qqilarni zabt etish imkoniyatini yaratdi. Shunday ekan, ulardan unumli foydalanish, faqatgina yaxshilik uchun xizmat qilishini yo'lga qo'yishimiz zarur.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O.S. Radjabov, A.A. Temirov, M.R. Avezova Kriterii otsenki delovoy aktivnosti predpriyatiya // "Globallashuv jarayonida korporativ boshqaruv: muammo va yechimlar" ilmiy maqolalar to'plami (Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami). Toshkent-2019. -S. 248-250
2. Temirov A., Sohobiddinov A. "Mamlaktimiz ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya va innovatsiyon texnologiyalardan foydalangan holda bilim olish" // "WORLD SOCIAL SCIENCE" // 15-16 bet.
3. I.Aldashev "Media ta'limning o'quv jarayoniga tatbig'i" Results of National Scientific Research International Journal 2023
4. I.Aldashev "O'qituvchi ishida ijodiy yondashish xususiyatlari" Results of National Scientific Research International Journal 2023 Volume 2| Issue 4
5. I.Aldashev, S.Aldasheva "Dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni" - ... and practical conference" the time of..., 2022 Related articles
6. Modern information technologies in education is a new opportunity I.Aldashev - Economy and society, 2020 Cited by 8 Related articles